

**IJTIMOIIY GUMANITAR YO'NALISH PEDAGOGLARINING KREATIV
KOMPONENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Namangan Davlat Insituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Mansurova Iroda Nosiraliyevna

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi pedagoglarning ijodiy salohiyatini takomillashtirish masalasi ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Mualliflar, zamonaviy jamiyatda bilish jarayonlarining chuqurlashuvi va ta‘limdagi innovatsion yondashuvlar talabining ortib borishi natijasida pedagogik mahoratning ijodiy komponentlarini rivojlantirish zarurligiga e‘tibor qaratadilar. Pedagoglar faqatgina bilim uzatish bilan cheklanmay, balki talabalarda mustaqil, tanqidiy, innovatsion va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda faol ishtirok etishlari lozim. Shu munosabat bilan, maqola ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qituvchilarini nisbatan an‘anaviy o‘qitish metodlaridan strategik jihatdan o‘zgaruvchan, fleksibil, kreativ yondashuvlarga o‘tish zarurligini asoslashga qaratilgan. Maqolaning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda kreativ kompetensiya ham nazariy konsepsiya, ham amaliy metod sifatida o‘rganiladi. Natijada, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarida ijodiy imkoniyatlarni kengaytirishga yo‘naltirilgan modelni shakllantirish, ularning kasbiy malakasini oshirish va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladigan, ijodkorlikni qadrlaydigan hamda istiqbolli avlodni tarbiyalaydigan muhitni yaratish maqsad qilinadi.

Umuman olganda, maqola ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi pedagoglar faoliyatining metodik, psixologik va professional jihatlariga ijodiy komponentni kiritish, uni mustahkamlash hamda zamonaviy ta‘lim jarayonlarida innovatsion yondashuvlar orqali ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni



taklif etadi. Shu tariqa, maqola ijodiy fikrlovchi, yangilikka intiluvchi hamda jamiyat ehtiyojlariga uyg'un tarzda malakali kadrlarni tayyorlashda pedagoglarning ijodiy komponentlarini takomillashtirishga ko'mak beradi.

Kalit so'zlar: *kreativ kompetentlilik, kreativ qobiliyatlar, kompetensiya, kreativlik, kreativlik-ijodiylik, ijod, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyatlar, kreativ salohiyat, kompetent yondashuv.*

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimi pedagoglarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini, balki ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuv qobiliyatlarini ham rivojlantirishni talab qiladi. Xususan, ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari ta'lim jarayonida madaniy va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish hamda zamonaviy jamiyatning ehtiyojlariga mos ijodiy metodlarni qo'llashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ komponentlarini takomillashtirish zarurati va usullari haqida ilmiy tahlil qiladi. Respublikamizda o'quvchilarning mustaqil, ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ijtimoiy muhitda o'zini ijodiy namoyon etishining didaktik tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan milliy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shuningdek, "maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish"¹ orqali o'quvchilarda turli kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi"², degan g'oyani ilgari surib, buning asosida maktab ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilishini ta'kidlab o'tgan edi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134- son Farmoni / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son. <https://lex.uz/docs/-6008663>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - <https://president.uz/oz/lists/view/4057>



Ushbu islohotlar doirasida “bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish”³ asosiy masalalaridan biri sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Shu asosda maktab ta’limini rahbar va pedagog-xodimlari, o‘quvchi va bitiruvchilariga qo‘yilgan talablar ortmoqda. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash va bu yo‘nalishda ularning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish, voqelik va jarayonlarga nisbatan kreativ fikrlashlariga imkoniyat yaratish, turli xil ijtimoiy muhitda o‘z fikri va qarashlarini bayon etishga, harakatlarini boshqara olishga tayyorlash ta’lim jarayonining muhim vazifalari sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchilarning kreativligi va uni oshirish haqida bugungi kunga qadar ko‘plab olim va tadqiqodchilar izlanishlar olib borgan jumladan tadqiqotchilardan G.Ibragimova⁴ “shaxs kreativligining tarkibiy tuzilishini: fantaziya, shaxsiy yo‘nalganlik, bilim, ko‘nikma, malakalar, nostandart tafakkur, mustaqillik, intuisiya, refleksiya kabilarga ajratib ko‘rsatadi.” U kreativlik shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon ekanligiga urg‘u beradi. “Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo‘l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi”⁵.

Ushbu mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan Chet el olimlaridan Hennessey va Amabaillarning fikricha, “kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, jumladan, ular tabiiy, falsafa, san‘at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi”⁶. Shunday ekan, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy keladigan fikrlardan keskin farq qiladi. “Kreativlik bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishlariga imkon beradi. Dunyo miqyosidagi tashkilotlar va jamiyatlar “innovatsion g‘oyalar va kreativ fikrlashga nisbatan umumiy tashabbuskorlik”⁷ deb qarab, yuzaga kelayotgan

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

⁴ Ибрагимова Г. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Т.: 2017. – 155 б.

⁵ Ибрагимова Г. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Т.: 2017. – 155 б.

⁶ Hennessey, B. and T. Amabile (2010), “Creativity”, Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598.

⁷ 4 Hennessey, B. and T. Amabile (2010), “Creativity”, Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598.



murakkabliklarni yengishda innovatsion g'oyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashga e'tibor qaratmoqda. Rus psixolog-olimi Ya.A.Ponomarev⁸ "kreativ shaxsda quyidagi muhim xususiyatlar mavjud bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tadi: – perseptual: diqqatni jamlashning g'ayrioddiy qobiliyati, idrok, katta taassurot; – intellektual: sezgi, kuchli tasavvur, ixtiro, bashorat, bilimlarning kengligi; – xarakterli: bir xillikdan qochish, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, mustaqil rivojlantirish"⁹. Psixolog R.Epshteyn¹⁰ "kreativlik bo'yicha yetakchi mutaxassis olim sifatida tanilib, u kreativ kompetensiyalarning quyidagi muhim va oddiy modelini ishlab chiqdi."¹¹

Uning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, insonlar yangi yoki kutilmagan ogohlantirishlarsiz biror bir muammoga duch kelganida kreativlik ularni ijtimoiy, ta'limiy, kasbiy, qo'yinki, har sohadagi qiyinchiliklardan chiqishlariga ko'mak beradi. Yuqoridagi tadqiqodlarning mantiqiy davomi sifatida yurtimizda hamda horijiy mamlakatlarda ham kreativlik hamda pedagoglarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish xususida ko'plab izlanish ishlari olib borilmoqda.

Asosiy qism. Biz o'z tadqiqotimizda kreativlik tushunchasini falsafiy nuqtai-nazardan jarayon sifatida, pedagogik jihatdan qobiliyat sifatida va psixologik jihatdan tafakkur operatsiyalari sifatida tahlil qilib, o'qituvchi kreativ kompetentligining mazmuni, tuzilishi, uni rivojlantirishning shart-sharoitlari, bosqichlari, indikatorlari va mexanizmlarini asoslab berishga yo'naltirdik va shu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, o'qituvchining kreativ kompetentligi tuzilmasini ifodaladik¹².

1-rasm¹³

⁸ Пономарев Я.А. Психология творчества. – М.: 1976. – 304 с.

⁹ <https://kimtasso.com/creative-competencies/>

¹⁰ Пономарев Я.А. Психология творчества. – М.: 1976. – 304 с.

¹¹ <https://kimtasso.com/creative-competencies/>

¹² Tulishov G. PEDAGOGIKADA BO'LG'UVSI O'QITUVCHILARNI KREATIV KOMPETENTLIK MOHIYATI //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 9-16.

¹³ Tulishov G. PEDAGOGIKADA BO'LG'UVSI O'QITUVCHILARNI KREATIV KOMPETENTLIK MOHIYATI //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 9-16.



Jarayon sifatida	Qobiliyat sifatida	Tafakkur va aqliy operatsiyalarda
Kreativ xulosalar yaratish jarayoni	Intellectual qobiliyatlar	Tezkor xotira
Muammmoni yechishda mavjud bilimlar yetishmasligini anglash jarayoni	Mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati	O'ziga ishonch va mustaqil fikrlash
Farazlarni taklif etish	Refleksiya	Aqlning peshqadamligi
Tezlikda qaror qabul qilish	Tashabbuskorlik	O'z-o'zini nazorat va shaxsiy javobgarlik
G'oyalarni takomillashtirish jarayoni	Ijodkorlik. Ijodiy yo'nalganlik	Tafakkur tezligi
O'zini-o'zi hurmat qilish bilan bog'liq "Men" konsepsiyasi	Innovatsion qobiliyatga egalik	Eruditsiya va ichki sezgining rivojlanganligi
Tajriba va bilimga asoslangan qaror qabul qilish	Original g'oyalar yaratish qobiliyati	Boy tassavurga egalik
Qarorni shakllantirish jarayoni	Analitik qobiliyat	Tafakkurning egiluvchanligi
Voqea hodisalarni tezkor assimilyatsiya qilish jarayoni	Amaliy-kontekstli qobiliyat	Noan'anaviy fikrlash
Intellectual qiziqish va bilimga intilish	Sintetik qobiliyat	Istiqbolni anglash
Fikrlashning moslashuvchanligi jarayoni	Konstruktivlik	Nostandart qaror qabul qilish
	Topqirlik	Ichki sezgining rivojlanganligi
	O'ziga xoslik	
	Muammolarga sezgirlik	
	Ravonlik	

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari faoliyatida kreativlikning ahamiyati. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari ko'pincha talabalarning ijtimoiy faoliyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish va ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Shunday ekan, pedagoglar quyidagi vazifalarni ijodiy yondashuv orqali samarali amalga oshirishlari zarur:

- Talabalar diqqatini jalb qilish uchun o'yin texnologiyalari, interaktiv taqdimotlar va muammoli o'quv metodlarini qo'llash.
- Ijtimoiy fanlar bo'yicha dars jarayonida turli madaniyalar va qadriyatlar bilan tanishtirish orqali tolerantlik va madaniyatlararo muloqot qobiliyatini shakllantirish.



➤ Talabalarni o'z g'oyalarini ilgari surishga undash va yangi yechimlar topishga o'rgatish.

Kreativ komponentlarni takomillashtirish usullari: Pedagoglarning kreativlik darajasini oshirish uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilish muhimdir. Ushbu mashg'ulotlar ularni innovatsion metodlarni o'rganishga, g'oyalarni erkin ifodalashga va kreativ muhit yaratishga yordam beradi.

Raqamli vositalardan foydalanish pedagoglarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, virtual haqiqat texnologiyalari yordamida tarixiy voqealarni jonlantirish, interaktiv darsliklar orqali talabalar bilan muloqotda bo'lish kabi usullar kreativlikni rivojlantiradi.

Boshqa soha vakillari bilan muloqot o'rnatish pedagoglarning qarash doirasini kengaytiradi va yangi fikrlarni tatbiq qilishga yordam beradi. Masalan, san'at sohasi vakillari bilan hamkorlik orqali o'quv materiallarini dizaynerlik uslubida tayyorlash yoki teatr sahnalari orqali o'rgatish.

Talabalar bilan hamkorlikda turli mavzularda amaliy loyihalar o'tkazish pedagoglarga o'z yondashuvlarini sinab ko'rish imkonini beradi. Bu jarayonda ijodiy g'oyalar shakllanadi va takomillashadi.

Xulosa. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari faoliyatida kreativ komponentlarni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy yondashuvlar, texnologiyalardan foydalanish va hamkorlikka asoslangan faoliyat bu jarayonni sezilarli darajada samarali qiladi. Ushbu taklif etilgan usullar orqali pedagoglar talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan birga, o'zlarining kasbiy mahoratini ham yangi bosqichga ko'taradilar.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ komponentlarini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishda va talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, pedagogik treninglar tashkil qilish, kasbiy hamkorlikni rivojlantirish va amaliy tajribaga asoslangan loyihalar orqali pedagoglarning ijodiy qobiliyatlari sezilarli darajada oshirilishi mumkin. Bu nafaqat ta'lim jarayonining



samaradorligini oshiradi, balki jamiyat ehtiyojlariga mos raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalash imkonini beradi.

Takliflar. Pedagoglarning kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muntazam trening va seminarlar tashkil qilish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish kerak.

Raqamli platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarini o'quv jarayonida kengroq qo'llashni rag'batlantirish zarur. Bu talabalarni mavzuga qiziqtiradi va pedagoglarning ijodiy yondashuvlarini namoyon etishiga yordam beradi.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirish maqsadida turli ta'lim muassasalari va soha mutaxassislari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, mahalliy va xalqaro miqyosdagi tajriba almashish dasturlarida ishtirok etishni qo'llab-quvvatlash kerak.

Pedagoglarning ijodiy g'oyalarini hayotga tatbiq etishi uchun davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan grant va rag'batlantirish tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Pedagoglar uchun zamonaviy ijodiy usullardan foydalanishga oid amaliy qo'llanmalar va metodik materiallarni ishlab chiqish, ularni ta'lim muassasalariga yetkazish kerak.

Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ komponentlarini rivojlantirishga xizmat qilib, ta'limning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134- son Farmoni / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son. <https://lex.uz/docs/-6008663>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - <https://president.uz/oz/lists/view/4057>



4. Ибрагимова Г. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Т.: 2017. – 155 б.
5. Ибрагимова Г. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Т.: 2017. – 155 б.
6. Hennessey, B. and T. Amabile (2010), “Creativity”, Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598.
7. Hennessey, B. and T. Amabile (2010), “Creativity”, Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598.
8. Пономарев Я.А. Психология творчества. – М.: 1976. – 304 с.
9. <https://kimtasso.com/creative-competencies/>
10. Пономарев Я.А. Психология творчества. – М.: 1976. – 304 с.
11. <https://kimtasso.com/creative-competencies/>
12. Tulishov G. PEDAGOGIKADA BO ‘LG ‘UVSI O ‘QITUVCHILARNI KREATIV KOMPETENTLIK MOHIYATI //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 9-16.
13. Tulishov G. PEDAGOGIKADA BO ‘LG ‘UVSI O ‘QITUVCHILARNI KREATIV KOMPETENTLIK MOHIYATI //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 9-16.